

## KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TARBIYA DARSLARINI OLIB BORISH

*Shodmonova Abera Shodiyevna*

*Toshkent shahar Fan va texnologiyalar universiteti Boshlang'ich va maktabgacha kafedrası katta o'qituvchisi*

*Miryusupova Maftuna. Quchqorova Xosiyatxon.*

*Fan va texnologiyalar universiteti Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim yo'nalishi kunduzgi 103- guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya fani dars jarayonida o'quvchilarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda kreativ ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan. Didaktik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** kreativ texnologiya, innovasion texnologiya, ta'lim-tarbiya, didaktik vosita, ta'lim samaradorligi.

### KIRISH

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv- tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchidan*, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida —Ta'lim to'g'risidagi Qonunda rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

*Ikkinchidan*, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchidan*, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To'rtinchidan*, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi.

### ASOSIY QISM

O'quv-tarbiya jarayonida kreativ texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Kreativ texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovasion

jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**«Dumaloq stol» metodi:** Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'lab aylantiriladi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib qo'ygach, varaqni boshqa talabaga uzatadi. Keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab talabaning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozmashaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin.

Berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarga misollar:

- tarbiyaning tarkibiy qismlari qaysilar?;
- aqliy tarbiyaning hozirgi davr talabi nimada?;
- jismoniy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati;
- huquqiy tarbiyaning muhim belgilari qaysilar?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo'yilgan savol, bu – javobning yarmisini o'zida jo etgan savoldir.

**«Ruchka stol o'rtasida» metodi.** Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, o'quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir etuvchi, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillarini birma-bir ko'rsatib o'tilsin). Har bir talaba bitta javob variantini bir varaq qog'ozga yozib, uni qo'shnisiga beradi, o'z ruchkasini esa stolning o'rtasiga surib qo'yadi.

Topshiriqqa misol: O'qituvchining guruhga beradigan topshirig'i shaxs rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni hayotiy misollar bilan sharhlab berish. Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko'proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog'ozga yozilgan topshiriq bir talabadan ikkinchisiga uzatiladi. Talaba javobni yozib, qog'ozni keying talabaga uzatadi, ruchkasini esa, o'ziga ro'baro' qilib, stolga qo'yib qo'yadi. Javobni bilmaydigan talaba qog'ozni keyingi talabaga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo'lida olib qoladi. Bu metodkaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo'lishiga bu o'rinda yo'l qo'yilmaydi. Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog'oz o'qituvchida. U o'sha variantlarni sanab o'tadi. Variantlar sanab o'tilar ekan, ularning biri muhokama qilib boriladi: Insondagi tug'ma qobiliyatni qanday izohlaysiz? Bolani o'rab turgan ijtimoiy muhit deganda nimani tushunasiz? Va hokazo.

Kreativ usullarni yana boshqacha ta'riflaydigan bo'lsak kreativ ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Kreativ

metod — ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o’zaro harakati, ta’siri ostida bilimlarni o’zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo’llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari — norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o’qish, o’rganish, seminarlar o’tkazish, o’quvchilarni tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik, bu — o’zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bunda o’quv-biluv jarayoni o’zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o’qituvchi-o’quvchilarning o’zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik — o’zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o’quvchi-o’qituvchi, o’quvchi-o’quvchi (sub’yekt- sub’yekt) suhbatlarida sodir bo’ladi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Demak, kreativ ta’lim texnologiyalari va uning muhim tarkiiy elementi bo’lgan interfaol metodlar ta’lim jarayonini tashkil etish ko’rsatkichlarining o’zgarishini ta’minlaydi. Zero, zamonaviy ta’lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog’liqlikda ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o’qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O’zbekiston” – 2016.56B.
3. M.Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi” o’quv qo’llanma M.Buxoro:OOO”Sadriddin Salim Buxoriy “Durdona,2021-312b.
4. Sh.N. QURBONOVA: Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya turlarining qo’llanishi.PEDAGOGIK MAHORAT. Maxsus son, 2020 102bet.